

BADIIY MATILARNING LINGVOPOETIK TAHLILI

Jalolov Jamol Jalolovich

Farg'ona davlat universiteti ingliz tili kafedrası professori, pedagogika fanlari nomzodi

Akramova Nilufar A'zamjon qizi

Farg'ona davlat universiteti lingvistik (ingliz tili) yo'nalish magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7408594>

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy asarlarni tahlil qilish jarayonida amal qilinishi zarur bo'lgan bir qancha tamoillar turlari bayon etilgan. Badiiy asarning lingvistik tahliliga misollar va barqaror birikmalar asosida tahlil qilingan va ma'nolari izohlangan. Asarlarni bunday tahlil qilishdan maqsad va uning vazifalari to'liq yoritilgan.

Kalit so'zlar: metodologiya, metod, tamoyil, usul, umumxalq tili, shakl va mazmun birligi tamoyili, aktuallashtirilgan til, makon va zamon birligi tamoyili, So'z san'ati.

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ МАТЕРИАЛОВ

Аннотация. В данной статье описаны несколько типов принципов, которыми необходимо руководствоваться в процессе анализа произведений искусства. Лингвистический анализ художественного произведения анализируется на примерах и устойчивых сочетаниях и разъясняются его значения. Полностью разъясняются цель и задачи такого анализа произведений.

Ключевые слова: методология, метод, принцип, метод, универсальный язык, принцип единства формы и содержания, актуализированный язык, принцип единства пространства и времени, Искусство Слова.

LINGUOPOETIC ANALYSIS OF ARTISTIC MATERIALS

Abstract. This article describes several types of principles that should guide the analysis of works of art. The linguistic analysis of a work of art is analyzed using examples and stable combinations and its meanings are explained. The purpose and objectives of such an analysis of works are fully explained.

Keywords: methodology, method, principle, method, universal language, principle of unity of form and content, actualized language, principle of unity of space and time, Art of the Word.

O'zbek tilshunosligida matn tadqiqi xususida gap ketganda, M.To'xsanovning "Mikromatn va o'zbek badiiy nutqida uning kogerentligini ifodalovchi vositalar" mavzusidagi nomzodlik ishini ta'kidlash joiz [1]. A.Mamajonovning 1989 yilda nashr qilingan "Tekst lingvistikasi" nomli qo'llanmasi ushbu masalaga bag'ishlangan dastlabki o'quv qo'llanmasi ekanligi bilan diqqatga sazovor. M.Hakimovning "O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek tilining ilmiy uslubi matn kategoriyasi aspektida o'rganilgan [2].

Shu bilan bir qatorda o'zbek tilshunosligida badiiy matn tadqiqi sohasida jiddiy izlanish olib borgan M.Yo'ldoshev badiiy matni tahlil qilish jarayonida eng muhim ahaamiyat kasb etuvch tamoyillar haqida quyidagi fikrlarni ilgari suradi: Shakl va mazmun birligi tamoyili, makon va zamon birligi tamoyili, badiiy matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash tamoyili, badiiy matndagi poetik aktuallashtirilgan til vositalarini aniqlash tamoyillari, badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarini aniqlash tamoyili [3].

1. Shakl va mazmun birligi tamoyili. Borliqdagi narsa hodisalar o'rtasidagi aloqadorlik, bog'lanish turlaridan biri shakl va mazmunning dialektikasidir. Shakl va mazmunning dialektik birligi tushunchasi har qanday matn uchun zaruriy xususiyat hisoblanadi. Faylasuflar mazmunga «muayyan narsa va hodisalarni tavsiflovchi ichki elementlar va o'zgarishlarning majmui», deb baho beradilar [4]. Shakl esa «ifiazmunni ifodalash usuli, tashkil etuvchisi» sifatida talqin qiladilar. Shakl va mazmun bir-biri bilan shunday bog'lanib ketganki, birida sezilgan nuqson ikkinchisidagi butunlikka putur etkazishi mumkin [5]. Shakl va mazmun muvofiqligi buzilsa, muallifning niyati to'la namoyon bo'lmay qolishi turgan gap. Bunda asosiy e'tiborni matn va uning janr xususiyati o'rtasidagi muvozanatga qaratgan holda, matndagi lisoniy birliklarning matn tabiatiga mosligi masalasini ham diqqat markazidan qochirmaslik kerak. Badiiy matn ham shaklan, ham mazmunan mutlaqo o'ziga xos bo'lgan murakkab va serqatlam estetik butunlikdir [6]. Unda mazmun qanchalik muhim bo'lsa, shakl ham shunchalik favqulodda ahamiyatlidir. Ba'zan shakl hatto mazmun darajasiga ko'tarilishi, mazmun maqomini olib, haqiqiy mazmunning qimmatiga daxl qilishi ham mumkin. Badiiy matnda muallifning mazmunni shaklga solishdagi mahorati, bundagi individual xususiyatlar alohida qimmatga ega. Badiiy matnning 48 lahlilida, eng avvalo, ana shu jihat, ya'ni shakl va mazmun birligi birlamchi tamoyil sifatida nazarda tutilishi lozim [7]. Shakl va mazmunning ochiq yoki yashirin muvofiqligi muallif badiiy niyatining aniq va to'la namoyon bo'lishi uchun jiddiy zamindir.

2. Makon va zamon birligi tamoyili. Badiiy matning til xususiyatlari tekshirilayotganida undagi har bir hodisaga makon va zamon birligi tushunchasini hisobga olib yondashish kerak. Har qanday asar davr va makon bilan bog'liq holda yuzaga keladi [8]. Tarixiy mavzudagi asar tilida muayyan zamon ruhini tashuvchi voqealarning qaysi makonda, qanday muhitda yuz berayotganini oydinlashtiruvchi lelsik-grammatik birliklar ishtirok etadi. Makon va zamon birligi (ushunchasi badiiy asargagina xos belgi emas [9]. U har qanday matn ko'rinishiga taalluqlidir. Ushbu tamoyil asosida tahlil olib borilayotganda mata yozilgan davr, matnda ko'tarilgan mavzu va matn birliklarining tabiatiga qarab diaxron va sinxron aspektlardan biri tanlanishi kerak. Buni yirik so'z san'atkori Abdulla Qahhor hikoyasidan olingan quyidagi parcha asosida ko'zdan kechiramiz:

-Ha, sigiringyo'qoldimi?

-Yo'q... sigir emas, ho'kiz, ola ho'kiz edi.

-Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa ho'kiz edi?

-Ola ho'kiz... -Yaxshi hokizmidi yo yomon ho'kizmidi?

-Qo'sh mahali... -Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa ketaberadimi?

-Bisotimda hech narsayo'q...

-O'zi qaytib kelmasmikin?... Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekan-da. Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin! (Tanlangan asarlar. 1-tom. 33-bet).

Bu suhbat qayerda, qaysi davrda, qanday odamlar o'rtasida bo'lib o'tayotganligini keltirilgan ushbu kichik parchadan ham bilsa boiadi [10]. Savol ham qisqa, javob ham. Savol berish tarzida kibr, mensimaslik, voqelikka arziyas bir narsaga qarayotgandek beparvo munosabat seziladi. Piching, kesatiq va masxara ohangi aniq aks etgan. Javobdan esa qahramonning soddaligi, faqirligi anglashiladi [11]. Suhbat amin huzurida bo'lib o'tyapti. Shunga muvofiq rasmiy nutq elementlaridan foydalanilgan. Badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari tekshirilayotganda undagi har bir til hodisasiga makon va zamon birligi

tushunchasini hisobga olib yondashish kerak. Chunki har qanday asar davr va makon bilan bog'liq holda yuzaga keladi [12].

3. Badiiy matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash tamoyili. Tahlil etilayotgan matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini nazarda tutish ham yana bir tamoyildir. V.V.Vinogradov "Badiiy adabiyot tili haqida" (1959) nomli asarida ta'kidlaganidek, badiiy adabiyot tilining tarixiy harakatini umumxalq tili hamda uning turli tarmoqlanishi tarixidan tamoman ajratilgan holda o'rganish mumkin emas. Badiiy matnning ikki turini farqlash mumkin: 1) zamonaviy matn (bugun yaratilgan), 2) tarixiy matn (o'tmishda yaratilgan). Zamonaviy matnning ham o'z navbatida ikki turini kuzatish mumkin, ya'ni: a) bugungi kun mavzusidagi zamonaviy matn, b) tarixiy mavzudagi zamonaviy matn. Masalan, S.Ahmadning "Azroil o'tgan yo'llarda" hikoyasi bugungi kun mavzusidagi zamonaviy matn, M.Alining "Ulug' saltanat" romani tarixiy mavzudagi zamonaviy matn, Navoiyning "Farhod va Shirin"i esa tarixiy matndir [13].

4. Badiiy matnda poetik aktuallashtirilgan til vositalarini aniqlash tamoyili. Badiiy asardagi poetik aktuallashtirilgan til vositalarini aniqlash ham muhim tamoyillardandir. Bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanishi mexanizmlarini aniq tasavvur qilishi mumkin.

5. Badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash tamoyili. Matn ichida qo'Mlanilgan o'zga matn ko'rinishlarini (nazira, taqlid, naql, hadis, rivoyat, miflar, afsonalar, didaktemalar, u yoki bu ijodkoming asari yoki parchasi kabi) aniqlash va ularning asar mazmuni bilan qay darajada uyg'unligi badiiy mazmun ifodasidagi o'mi, asosiy matn bilan lisoniy va semantik bog'lanishidagi muhim holatlar haqida fikr yuritish badiiy matn lingvopoetikasini ochishda favqulodda zarurdir [14].

XULOSA

Yozuvchi hamda shoirlarning asarlarini o'rganish, til va adabiy til namunalari bilan tanishish imkonini beradi. Badiiy adabiyot tili haqidagi soha tilshunoslikka ham, adabiyotshunoslikka ham oid bo'lib, ikki sohaning kesishganidan hosil bo'lgan, lekin ularning har ikkalasidan ham farqlidir. Badiiy asar tilining amaliy xususiyati uni lingvistik qahlil qilishda namoyon bo'lsa. Asarni lingvodidaktik tahlil qilish usullarida, uning badiiy tasvir vositalarini tahlil qilishda ko'rinadi. Bu esa badiiylik san'atning barcha turlari uchun xosdir [15]. So'z san'ati – adabiyot asosida ham badiiylik yotadi. Adabiy asarlarda hayot hodisalari o'z ko'rinishida emas, ijodkorning badiiy tili va badiiy mahorati orqali ifodalanadi. She'r, hikoya, qissa, roman, drama va shu kabi asarlarni lingvistik tahlil qilish, undagi so'zlarni tahlil qilish orqali yozuvchi mahorati va badiiy til darajasidan qanchalik foydalanganligini bilish mumkin. Badiiy asarlarda so'z hayot voqeligini aks ettirish uchun material, vosita vazifasini bajaradi. Adib, shoir voqelikning muayyan ko'rinishi, kishilarning holat, harakat, kechinmalarini aniq va ta'sirchan ifodalaydigan so'zlardan foydalanadi. Ushbu so'zlar kishilarning ongiga ta'sir etib, ularda hayotning muayyan voqeligi, insoniy kechinma, tuyg'ulari badiiy til orqali tasavvur uyg'otadi.

REFERENCES

1. Khoshimova, N. A. (2021). ASSOCIATIVE FIELDS OF THE COLLECTIVE AND INDIVIDUAL CONSCIOUS. *Theoretical & Applied Science*, (5), 436-439.
2. Makhmudovna, K. G. (2022). Creative Strategies to Improve Vocabulary Teaching. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(10), 259-261.
3. Карабаев, М., Абдуманонов, А. А., & Ахмедова, М. И. (2012). Компьютерная программа для формирования иноязычной профессиональной коммуникативной компетенции студентов медиков. *Свидетельство Патентной ведомстве Республики Узбекистан N: DGU, 2453*.
4. Bahridinov, M. M., Turgunov, D. B., & Tojiboyev, I. M. (2020). SOME PROBLEMS OF LEXICAL INVESTIGATION OF THE NOVEL ULYSSES BY JAMES JOYCE. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(1), 208-212.
5. Nozima, G. (2021). Замонавий тилшуносликда термин тушунчаси ва кўп компонентлик терминларнинг тахлили. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(6).
6. Khasanovna, G. D. LEXICAL SEMANTIC ANALYSIS “EDUCATIONAL ESTABLISHMENTS” IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.
7. Mirzaaliyev, I., & Oxunov, A. (2021). EKVALENTSIZ LEKSIKANING O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA IFODALANISHI. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 209-212.
8. Hashimova, N., & Sattorov, T. (2021). USAGE OF ENGLISH MILITARY TERMINOLOGIES AS A NEUTRAL AND COLLOQUIAL VOCABULARY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758)*, 2(11), 162-167.
9. Qizi, O. S. Z., & OGli, A. M. B. The Influence of Multilingualism in Learning a New Language.
10. Kochkorova, Z. A. Q. (2021). Translation aspects of the verbalizers of the concept of "wedding". *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 989-994.
11. Qizi, I. G. X. (2022). Using phraseological units in theolinguistics
12. Qizi, I. G. X. (2022). Using phraseological units in theolinguistics
13. Абдухалимова, С. (2022). THE CONCEPT AND CONTENT OF INTERCULTURAL DISCOURSE. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 5(4).
14. Oxunov, A. O. O. (2021). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA UNDOV SO'ZLAR (INTERJECTION) NING IFODALANISHI. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 401-406.
15. Gafurova, N. (2020). Ҳозирги замон тилшунослигида “Термин” ва унга турлича ёндашувлар. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 1(1), 58-62.